



ISSN 2181-9599

Doi Journal 10.26739/2181-9599

# ЎТМИШГА НАЗАР

8 ЖИЛД, 6 СОН

ВЗГЛЯД В ПРОШЛОЕ

ТОМ 8, НОМЕР 6

LOOK TO THE PAST

VOLUME 8, ISSUE 6



ТОШКЕНТ-2025

**Бош муҳаррир:**  
**Главный редактор:**  
**Chief Editor:**

**Муртазаева Рахбар Хамидовна**  
тарих фанлари доктори, профессор,  
Ўзбекистон Миллий университети

**Бош муҳаррир ўринбосари:**  
**Заместитель главного редактора:**  
**Deputy Chief Editor:**

**Джураева Нилуфар Далибаевна**  
тарих фанлари номзоди, доцент,  
Ўзбекистон жаҳон тиллари университети

## ТАҲРИРИЙ МАСЛАҲАТ КЕНГАШИ | РЕДАКЦИОННЫЙ СОВЕТ | EDITORIAL BOARD

**Сагдуллаев Анатолий Сагдуллаевич**  
тарих фанлари доктори,  
профессор, академик,  
Ўзбекистон Миллий университети

**Бобожонова Дилором Бобожонова**  
тарих фанлари доктори, профессор,  
Ўзбекистон жаҳон тиллари  
университети

**Юнусова Хуршида Эркиновна**  
тарих фанлари доктори, профессор,  
Ўзбекистон Миллий университети

**Аширов Адхам Азимбаевич**  
тарих фанлари доктори, профессор,  
ЎзР ФА Тарих институти

**Агзамова Гулчехра Азизовна**  
тарих фанлари доктори, профессор,  
ЎзР ФА Тарих институти

**Бурдиашвили Майя**  
тарих фанлари доктори,  
Телави давлат университети

**Кожакеева Ляззат Темировна**  
тарих фанлари доктори, доцент,  
Хотин-қизлар давлат педагогика  
университети

**Аминова Азиза Марковна**  
тарих фанлари доктори, доцент,  
Навоий давлат педагогика институти

**Ульжаева Шохистахон Мамажоновна**  
тарих фанлари доктори,  
Тошкент ирригация ва кишлок  
хужалигини механизациялаш  
муҳандислари институти  
Миллий тадқиқот университети

**Худайқулов Тулқин Дўстбоевич**  
Тарих фанлари доктори (DSc)  
Шаҳрисабз дала педагогика институти

**Гофоров Шокир Сафарович**  
тарих фанлари доктори, профессор  
Самарқанд давлат университети

**Эргашева Юлдуз Алимовна**  
Тарих фанлари доктори, профессор,  
Қариш муҳандислик-иқтисодиёт  
институти

**Халикова Раҳбар Эргашевна**  
тарих фанлари доктори, профессор,  
Тошкент давлат техника университети

**Ишанходжаева Замира Райимовна**  
тарих фанлари доктори, профессор,  
Ўзбекистон Миллий университети

**Эшов Боходир Жўраевич**  
тарих фанлари доктори, профессор  
Қариш давлат университети

**Маҳкамova Надира Раҳмановна**  
тарих фанлари доктори, профессор,  
Тошкент ахборот технологиялари  
университети

**Кебадзе Мадонна**  
тарих фанлари доктори,  
Телави давлат университети

**Абдуллаева Яхшибека Атамуратовна**  
тарих фанлари доктори, доцент,  
Нукус давлат педагогика институти

**Мустафасева Нодира Абдуллаевна**  
тарих фанлари доктори  
Ўзбекистон Фанлар академияси

**Ерметов Аваз Абдуллаевич**  
тарих фанлари доктори, профессор,  
Ўзбекистон Миллий университети

**Хайдаров Ғайратбек Мирзапўлатович**  
тарих фанлари доктори, профессор,  
Андижон давлат университети

**Расулов Абдуллажон Нуридиневич**  
тарих фанлари доктори, профессор  
Наманган давлат университети

**Ковалев Борис Николаевич**  
тарих фанлари доктори, профессор  
Санкт-Петербург Тарих институти

**Кобзева Ольга Петровна**  
тарих фанлари доктори, профессор,  
Ўзбекистон Миллий университети

**Ауанасова Алима Мусировна**  
тарих фанлари доктори, профессор,  
Қозогистон давлат тарихи институти

**Бегалинова Калимаш Капсамаровна**  
фалсафа фанлари доктори, профессор,  
Қозогистон Миллий университети

**Хайдаров Муродилла Махмуталиевич**  
тарих фанлари доктори, профессор,  
Ўзбекистон Миллий университети

**Тожибоев Музаффар Турдибоевич**  
тарих фанлари доктори, профессор,  
ИИВ Академияси

**Алиева Лале**  
тарих фанлари доктори,  
Озарбайжон давлат университети

**Сайнова Камола Давляталиевна**  
тарих фанлари доктори, доцент,  
Ўзбекистон Миллий университети

**Исмаилова Алмаз**  
тарих фанлари доктори,  
Догистон мустақил университети

**Иноятова Диларам Маниглиевна**  
Тарих фанлари доктори (DSc), профессор  
Ўзбекистон Миллий университети

**Таниева Гулдона Мамановна**  
тарих фанлари доктори, в.б.профессор,  
Низомий номидаги Ўзбекистон Миллий  
педагогика университети

**Дорошенко Татьяна Ивановна**  
тарих фанлари номзоди, доцент,  
Ўзбекистон Миллий университети

**Бабаджанова Нодира Абдуллаевна**  
тарих фанлари номзоди, доцент,  
Ўзбекистон давлат жаҳон  
тиллари университети

**Ширванова Тарана Амирага кызы**  
тарих фанлари номзоди, доцент,  
Азербайджон давлат  
иқтисодиёт университети

**Мирзалиев Улуғбек Бегмурзаевич**  
тарих фанлари бўйича фалсафа  
доктори (PhD), Гулистон  
давлат педагогика институти

**Нуруллаева Шоира Кушназаровна**  
тарих фанлари номзоди, доцент,  
Урганч давлат университети

**Толибоева Нодира Одилжоновна**  
тарих фанлари бўйича фалсафа  
доктори (PhD), доцент, Ўзбекистон  
жаҳон тиллари университети  
**Масъул котиб**

**Теймураз Ахалмосулишвили**  
тарих фанлари номзоди, профессор,  
Телави давлат университети

**Джоробекова Айнур Эшимбековна**  
тарих фанлари номзоди, профессор,  
Қозоғистон дипломатия академияси

**Рахмонқулова Зумрад Бойхуразовна**  
тарих фанлари номзоди, доцент,  
Ўзбекистон Миллий университети

**Исаков Бахадир Нигматуллаевич**  
тарих фанлари номзоди,  
Ўзбекистон давлат жаҳон  
тиллари университети

**Холмуродов Дилшод Рашидович**  
тарих фанлари бўйича фалсафа  
доктори (PhD), Жиззах давлат  
педагогика университети

**Одилов Аброр Анварович**  
тарих фанлари номзоди, доцент,  
Ўзбекистон Миллий университети  
**Масъул котиб**

**Тўхтабасев Аъзамжон Шарипхўжаевич**  
тарих фанлари бўйича фалсафа  
доктори (PhD), доцент,  
Наманган давлат университети

**Халмуратов Бахтиёр Режавалиевич**  
тарих фанлари бўйича фалсафа  
доктори (PhD), доцент,  
Наманган давлат университети

**Алимардонов Отабек Қудратович**  
тарих фанлари бўйича фалсафа  
доктори (PhD), доценти  
Ўзбекистон Миллий университети

## МУНДАРИЖА | СОДЕРЖАНИЕ | CONTENT

<b>1. Nilufar Djurayeva</b> SOVET HOKIMIYATINING IJTIMOIIY - IQTISODIY SIYOSATIDA XOTIN-QIZLAR TASHKILOTLARINING MAQSAD-VAZIFALARI.....	5
<b>2. Gulzona Taniyeva</b> O'ZBEKISTON ZIYORAT TURIZMIDAGI O'ZIGA XOSLIK: O'TMISH VA BUGUN.....	15
<b>3. Hikmatjon Avezov</b> O'ZBEKISTONNING MUSTAQIL DAVLATLAR HAMDO'STLIGI BILAN ATROF-MUHIT HIMOYASI SOHASIDAGI HAMKORLIK TARIXI.....	20
<b>4. Iskandar Samadov</b> XORAZM XALQ SOVET RESPUBLIKASI (XXSR)DA YER-SUV MASALASI VA PAXTACHILIKNING QAYTA TIKLANISHI.....	27
<b>5. Фируза Абдюсупова</b> В ПОИСКАХ НЕИЗВЕДАННОГО: РУССКИЕ ЭКСПЕДИЦИИ И РАЗВЕДЫВАТЕЛЬНЫЕ ПОХОДЫ В ПАМИРЕ (XIX BEK).....	34
<b>6. Nasiba Narzullayeva</b> SOVET DAVLATI SIYOSATIDA XORIJDA TA'LIM OLGAN O'ZBEK XOTIN- QIZLARINING QATAG'ON QILINISHI.....	41
<b>7. Istora Jo'rayeva</b> XOTIN-QIZLAR MAVZUSINING YORITILISHIDA AYRIM MULOHAZALAR.....	50
<b>8. Muslima Makhmudovna Bazarova</b> THE ACTIVITY OF SHELTERS IN UZBEKISTAN.....	55
<b>9. Diyora Chorshanbiyeva</b> YANGI O'ZBEKISTONDA YOSHLAR SIYOSATINING SHAKLLANISHI.....	60
<b>10. G'unchaxon Baxodirovna Alimova</b> O'ZBEKISTONDA DINIY TA'LIM OLIISH SOHASI YO'NALISHLARI VA UNING S IFATINI OSHIRISHGA QARATILGAN ISLOHOTLAR.....	65
<b>11. Mohira Matnazarova</b> KO'CHMANCHI CHORVADORLAR HAYOTINING YOZMA MANBALARDAGI INTERPRETATSIYASI.....	71
<b>12. Iroda Tishabayeva</b> 1950–1970 YILLARDA O'ZBEKISTON MAKTABGACHA TA'LIM MUASSASALARIDA BOLALAR OVQATLANISHINI TASHKIL ETISH MASALALARI.....	76




**Hikmatjon Kenjayeich Avezov**

O‘zbekiston Milliy Universiteti tarix fakulteti  
“O‘zbekiston tarixi” kafedrası tayanch doktoranti

## **O‘ZBEKISTONNING MUSTAQIL DAVLATLAR HAMDO‘STLIGI BILAN ATROF-MUHIT HIMOYASI SOHASIDAGI HAMKORLIK TARIXI**

**For citation:** Khikmatjon K.Avezov. HISTORY OF COOPERATION OF UZBEKISTAN WITH THE COMMONWEALTH OF INDEPENDENT STATES IN THE FIELD OF ENVIRONMENTAL PROTECTION. Look to the past. 2025, vol. 8, issue 6, pp.20-26

 <http://dx.doi.org/10.5281/zenodo.15806070>

### **ANNOTATSIYA**

Ushbu maqolada mustaqillik davrida O‘zbekistonda mavjud ekologik holatni barqarorlashtirish maqsadida xalqaro hamkorligimizning ajralmas qismi bo‘lgan Mustaqil Davlatlar Hamdo‘stligi bilan o‘zaro amalga oshirilgan ishlar borasida mulohazalar keltirilgan. Bu mulohazalar asosida mazkur maqola O‘zbekiston va MDH o‘rtasidagi atrof-muhit himoyasi sohasidagi hamkorligini mintaqaviy va global ahamiyatli ekaniga urg‘u beradi. Shuningdek, O‘zbekistonning MDH bilan atrof-muhit himoyasi sohasidagi hamkorligi uzoq tarixga ega ekanligi, mazkur hamkorlik mintaqaviy ekologik muammolarni hal qilish, tabiiy resurslardan oqilona foydalanish va ekologik xavfsizlikni ta‘minlashga xizmat qilayotganligi asoslangan. Kelajakda O‘zbekiston MDH doirasida atrof-muhitni muhofaza qilish sohasidagi hamkorlikning yanada kuchayishi nafaqat mintaqa, balki butun dunyo uchun muhim ahamiyatga ega ekanligi ilmiy nuqtai nazardan tahlil qilingan.

**Kalit so‘zlar:** mustaqillik, xalqaro hamkorlik, mintaqaviy kelishuv, O‘zbekiston, ekologiya, atrof-muhit, MDH, tabiat muhofazasi, ko‘kalamzorlashtirish, yashil iqtisodiyot.

**Хикматжон Кенжаевич Аvezов,**

Исторический факультет Национального университета Узбекистана  
Научный сотрудник кафедры «История Узбекистана»

## **ИСТОРИЯ СОТРУДНИЧЕСТВА УЗБЕКИСТАНА С СОДРУЖЕСТВОМ НЕЗАВИСИМЫХ ГОСУДАРСТВ В ОБЛАСТИ ОХРАНЫ ОКРУЖАЮЩЕЙ СРЕДЫ**

### **АННОТАЦИЯ**

В данной статье представлены наблюдения о работе, проводимой с Содружеством Независимых Государств, которая является неотъемлемой частью нашего международного сотрудничества, в целях стабилизации существующей экологической ситуации в Узбекистане в период независимости. На основе этих наблюдений в данной статье подчеркивается региональное и глобальное значение сотрудничества Узбекистана и СНГ в области охраны окружающей среды. Также исходит из того, что сотрудничество

Ўзбекистана с СНГ в области охраны окружающей среды имеет многолетнюю историю, и это сотрудничество служит решению региональных экологических проблем, рациональному использованию природных ресурсов и обеспечению экологической безопасности. С научной точки зрения анализируется, что дальнейшее укрепление сотрудничества Узбекистана со странами СНГ в области охраны окружающей среды в будущем имеет большое значение не только для региона, но и для всего мира.

**Ключевые слова:** независимость, международное сотрудничество, региональное соглашение, Узбекистан, экология, окружающая среда, СНГ, охрана природы, экологизация, зеленая экономика.

**Khikmatjon K. Avezov,**

Historical Department of the National University of Uzbekistan  
Researcher, Department of History of Uzbekistan

## HISTORY OF COOPERATION OF UZBEKISTAN WITH THE COMMONWEALTH OF INDEPENDENT STATES IN THE FIELD OF ENVIRONMENTAL PROTECTION

### ABSTARCT

This article presents reflections on the activities carried out in cooperation with the Commonwealth of Independent States (CIS), an integral part of Uzbekistan's international collaboration, aimed at stabilizing the ecological situation in the country during the period of independence. The paper highlights the implemented measures within this cooperation and provides conclusions on the steps taken to address environmental challenges. It is also based on the fact that Uzbekistan's cooperation with the CIS in the field of environmental protection has a long history, and this cooperation serves to solve regional environmental problems, rational use of natural resources and ensure environmental safety. It is analyzed from a scientific point of view that further strengthening of cooperation between Uzbekistan and the CIS in the field of environmental protection in the future is of great importance not only for the region, but also for the whole world.

**Index Terms:** independence, international cooperation, regional agreement, Uzbekistan, ecology, environment, CIS, nature conservation, greening, green economy.

### Kirish:

Jahon amaliyotidan malumki, har bir mustaqil davlat, ayniqsa mustaqil taraqqiyot yo'liga kirgan mamlakatlar hech qachon o'z qobig'iga o'ralib rivojlanmagan. Aksincha mustaqil rivojlanish yo'lini tanlashi bilanoq jahon hamjamiyatiga qo'shilish orqali o'z taqdirini belgilagan. Shuning uchun ham O'zbekiston mustaqil davlat maqomiga erishishi bilanoq jahon hamjamiyatiga qo'shilish yo'lini tutdi.

Har bir xalq o'z taqdirini o'zi belgilashi tamoiliga sodiq qolgan holda va milliy manfaatlarimiz himoyasini xalqaro munosabatlarning asosiy tamoili qilib belgilagan O'zbekiston tashqi siyosatining diqqat markazida Mustaqil Davlatlar Hamdo'stligi doirasidagi davlatlar bilan o'zaro teng aloqalarni mustahkamlash bo'ldi.

Chunki sho'ro tuzumi sharoitida hukm surgan boshqaruvning mar- kazlashtirilgan ma'muriy-buyruqbozlik usuli, mustabidlik siyosati sobiq ittifoq tarkibiga kirgan mamlakatlarni iqtisodiy jihatdan bir-biriga shunday bog'lab qo'ygan ediki, natijada ular o'zaro qaramlik domiga tushib qolgan edilar. Shuning uchun sobiq ittifoq tarkibidan ajralib chiqqan yosh mustaqil davlatlar buni chuqur his qilard va mavjud qiyinchiliklar hamda iqtisodiy inqirozdan chiqishning, mustabid siyosat asoratidan qutulishning birdan-bir yo'li bir yoqadan bosh chiqarib, harakat qilish edi. Ana shu nuqtai nazardan ham O'zbekiston Mustaqil Davlatlar Hamdo'stligi g'oyasini qo'llab - quvvatladi.

1991-yil 21 dekabrda Ozarbayjon, Armaniston, Belarus, Qozog'iston, Qirg'iziston, Moldova, Rossiya, Tojikiston, Turkmaniston, O'zbekiston va Ukraina davlatlari boshliqlari Almatida uchrashib Mustaqil Davlatlar Hamdo'stligiga asos soldilar. Shu tariqa XX asrning muhim

voqealaridan biri sodir bo'ldi — MDH ixtiyoriy iqtisodiy uyushma yuzaga keldi. Shundan buyon MDHning bir necha yig'ilishlari o'tkazildi, ko'p hujjatlar qabul qilindi. Ularning bari uzoq yillar bir davlat bo'lib kelgan mamlakatlararo iqtisodiy, madaniy, harbiy va boshqa sohalardagi aloqalarni yangi sharoitlarda - mustaqil munosabatlar tarzida davom ettirishga qaratilgan [2:528].

**Metodlar:**

Maqolada umumqabul qilingan metodlar – ilmiylik, xolislik, tarixiylik kabi usullardan foydalangan holda, O'zbekistonning MDH bilan atrof-muhit himoyasi sohasidagi hamkorlik tarixi, yutuqlari va kelajakdagi istiqbollari ko'rib chiqiladi.

**Tadqiqot natijalari:**

Mustaqil Davlatlar Hamdo'stligi (MDH) postsovet mamlakatlari uchun muhim mintaqaviy tashkilot bo'lib, uning maqsadi iqtisodiy, siyosiy va ijtimoiy hamkorlikni rivojlantirishdan iborat. O'zbekiston 1991-yilda MDHga a'zo bo'lganidan buyon tashkilotning atrof-muhitni muhofaza qilish sohasidagi dasturlarida faol ishtirok etmoqda. Atrof-muhit muammolari, ayniqsa, Markaziy Osiyo mintaqasida, transchegaraviy xarakterga ega bo'lib, ularni hal qilishda hamkorlik muhim ahamiyatga ega.

MDH tashkil etilganidan boshlab, atrof-muhitni muhofaza qilish uning asosiy yo'nalishlaridan biri bo'lib kelgan. MDH doirasida atrof-muhit muammolarini hal qilish uchun bir qator hujjatlar va dasturlar qabul qilingan. Shu o'rinda MDHni tashkil etish to'g'risidagi 1991-yil 8-dekabrda Minskda imzolangan shartnomaning to'rtinch moddasi birinchi hat boshida "Oliy Ahdlashuvchi Tomonlar o'z xalqlari va davlatlari o'rtasida siyosat, iqtisodiyot, madaniyat, ta'lim, sog'liqni saqlash, atrof-muhitni muhofaza qilish, fan, savdo, gumanitar va boshqa sohalarda teng huquqli va o'zaro manfaatli hamkorlikni rivojlantiradilar, keng axborot almashinuviga ko'maklashadilar, o'zaro majburiyatlarga vijdonan va qat'iy rioya qiladilar" deb takidlangan bo'lsa, yettinchi moddasning umumiy muvofiqlashtiruvchi institutlari orqali teng asosda amalga oshiriladigan birgalikdagi faoliyat sohasining to'rtinchisi "atrof-muhitni muhofaza qilish sohasidagi hamkorlik, ekologik xavfsizlikning kompleks xalqaro tizimini yaratishda ishtirok etish"[3] deb belgilanganligi tashkilotning faoliyati tamoillarida bu tarmoqning nechog'lik muhim ekanligini ko'rsatadi.

1992-yilda MDH a'zo davlatlari "Atrof-muhitni muhofaza qilish to'g'risida"gi konvensiyani imzoladilar. Bu hujjat atrof-muhitni muhofaza qilish, tabiiy resurslardan oqilona foydalanish va ekologik xavfsizlikni ta'minlashni nazarda tutgan.

Dunyo xalqlarini tashvishga solayotgan va insoniyatning faol sa'y-harakatlarini talab qiladigan global va mintaqaviy ekologik muammolarni hal etish zarurati hozirgi davrning dolzarb masalalaridan biri ekanligini to'g'ri anglagan O'zbekiston 1992-yil 8-fevralda MDH davlatlari rahbarlari tomonidan imzolangan shartnomaga muvofiq tuzilgan Davlatlararo Ekologiya Kengashining to'la huquqli a'zosi bo'lib bu tashkilotga qo'shildi.

1993-yil 22-yanvarda Minskda bo'lib o'tgan Mustaqil Davlatlar Hamdo'stligi davlat boshliqlari Kengashida MDH ning Nizomi qabul qilindi. Unda takidlab o'tilgan asosiy 7 ta maqsadning eng birinchisida ekologik sohada hamkorlikni amalga oshirish siyosiy, iqtisodiy, insonparvarlik va madaniy aloqalarni o'rnatish qatorida muhim va dolzard ekanligi alohida qayd etilgan edi[4:24].

Mintaqamizdagi orol bo'yi muammolarini bartaraf etish borasida olib borilayotgan islohotlar samarasida 1995-yil 18-20-sentyabr kunlari o'tkazilgan Orol dengizi havzasini barqaror rivojlantirish bo'yicha konferensiyasi davomida 5 ta Markaziy Osiyo mamlakatlarining prezidentlari tomonidan ilk bor tarixiy "Nukus deklaratsiyasi" imzolandi va, unga binoan, bu mamlakatlar barqaror rivojlantirish va „21-asr uchun kun tartibi"ga qat'iy tarzda tarafdori ekanliklari o'z tasdiqini topdi. Bugungi kunda bu masalalar bo'yicha prezidentimiz ham o'z fikr va mulohazalarini bildirmoqda: Atrof-muhitni muhofaza qilish va ekologik holatni yaxshilashga e'tiborni kuchaytirishimiz kerak. Avvalo, orol fojiasi oqibatlarini yumshatish bo'yicha boshlagan misli ko'rilmagan ishlarimizni davom ettirib, dengizning qurigan tubida o'rmonzorlarni kengaytirish Nukus Urganch Xiva shaharlari atrofida „yashil belbog'lar" barpo etishimiz lozim"[5].

1996-yilda O'zbekiston Respublikasining "Atmosfera havosini muhofaza qilish

to'g'risida"gi qonuni qabul qilindi. Mazkur qonun qilingandan keyin O'zbekiston Respublikasi Tabiatni muhofaza qilish davlat qo'mitasi tomonidan vazirliklar, idoralar, tashkilotlar va korxonalar bilan birgalikda atmosfera havosiga salbiy ta'sirni kamaytirish choralari ma'lum tizimga solindi. 2007-yil yakunlariga ko'ra atmosfera chiqarilayotgan ifloslantiruvchi moddalarning umumiy hajmi 2 mln tonnagacha qisqardi. 2000-yilda "Ekologik ekspertiza to'g'risida"gi O'zbekiston Respublikasining qonuni qabul qilinishi atrofmuhitni muhofaza qilish sohasida katta ahamiyatga ega bo'ldi. Mazkur qonunning qabul qilinishi bilan Davlat ekologik ekspertizasining aniq vazifalari belgilab berildi. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2017-yil 21-apreldagi "Ekologiya va atrofmuhitni muhofaza qilish sohasida davlat boshqaruvi tizimini takomillashtirish to'g'risida"gi farmoniga muvofiq Respublikada ekologik xavfsizlikni ta'minlash va atrof-muhitni davlat boshqaruvini tubdan takomillashtirish, ekologik holatni yaxshilash, chiqindilarning fuqarolar sog'ligiga zararli ta'sirini oldini olish, aholi darajasi va sifatini oshirish uchun qulay sharoitlar yaratish, maishiy chiqindilarni yig'ish, saqlash tashish, utilizatsiya qilish, qayta ishlash va ko'mish tizimini yanada takomillashtirish maqsadida O'zbekiston Respublikasi tabiatni muhofaza qilish davlat qo'mitasi qaytadan O'zbekiston Respublikasi ekologiya va atrof-muhitni muhofaza qilish davlat qo'mitasi etib tashkil etildi. Farmonda shuningdek "Xorijiy mamlakatlarning ekologiya va atrof-muhitni muhofaza qilish organlari faoliyatini tashkil qilishga oid tajribasidan kelib chiqqan holda mamlakatimiz qonunchiligiga Davlat ekologiya qo'mitasi O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasi oldida hisobot berib borishi yuzasidan o'zgartirish va qo'shimchalar kiritish nazarda tutgan[1]"ligi O'zbekiston hamkorlikning ahamiyati borasidagi pazitsiyasini ochiqalaydi. O'zbekiston Respublikasi tabiatni muhofaza qilish bo'yicha xalqaro hamkorligi milliy qonunchilik va xalqaro hamkorlikning konvensiyalari asosida tartibga solinadi[13].

O'zbekiston MDHning atrof-muhit sohasidagi faoliyatida muhim o'rin tutadi. Mamlakat mintaqaviy ekologik muammolar, jumladan, Orol dengizi muammosi, suv resurslarining kamayishi va tuproqning sho'rlanishi kabi masalalar bilan bog'liq muammolarni hal qilishda faol ishtirok etadi.

O'zbekiston va MDH o'rtasidagi keng ko'lamli hamkorlikning asosiy yo'nalishlaridan biri bo'lmish atrof-muhit himoyasidagi hamkorlikning asosiy bosqichlarini shartli ravishda quyidagicha izohlash mumkin:

- 1990-yillar: Dastlabki Hamkorlik. O'zbekiston MDHning atrof-muhitni muhofaza qilish bo'yicha dastlabki dasturlarida ishtirok etishni boshladi. Bu davrda Orol dengizi muammosi keng muhokama qilindi va mintaqaviy hamkorlikning zarurligi ta'kidlandi.

- 2000-yillar: Amaliy Hamkorlikning Kuchayishi. 2000-yillarda O'zbekiston va MDH a'zo davlatlari o'rtasida amaliy hamkorlik kuchaydi. Suv resurslarini boshqarish, tuproqni muhofaza qilish va iqlim o'zgarishiga qarshi kurashish bo'yicha bir qator loyihalar amalga oshirildi.

- 2010-yillar: Strategik Hamkorlik. So'nggi yillarda O'zbekiston MDH doirasida atrof-muhitni muhofaza qilish bo'yicha strategik hamkorlikni yo'lga qo'ydi. Bu davrda iqlim o'zgarishiga qarshi kurashish, qayta tiklanadigan energiya manbalarini rivojlantirish va ekologik ta'limni yoyish kabi yangi yo'nalishlar paydo bo'ldi.

O'zbekistonning MDH hamkorligi doirasidagi yutuqlariga to'htaladigan bo'lsak, O'zbekiston MDH bilan hamkorlikda bir qator muhim yutuqlarga erishdi jumladan:

- Orol dengizi muammosining hal etilishi uchun hamkorlikda kurash natijadorligi sababidan, O'zbekiston MDH a'zo davlatlari bilan birgalikda Orol dengizi muammosini hal qilish bo'yicha bir qator chora-tadbirlarni amalga oshirdi. Bu masala bo'yicha xalqaro konferensiyalar o'tkazildi va loyihalar ishlab chiqildi.

MDHni tashkil etish to'g'risidagi bitimning 4-moddasi asosida a'zo-davlatlar atrof-muhitni muhofaza qilish sohasidagi hamkorlikni rivojlantirish va o'zaro majburiyatlarga vijdonan va qat'iyatli rioya qilish majburiyatlarini o'z zimmlariga olishgan edi. BMT Nizomining 1-moddasi 3-bandida: "xalqaro muammolarni hal qilishda xalqaro hamkorlikni amalga oshirish"[9] deb qayd etilgan va ushbu norma ishtirokchi davlatlarga xalqaro muammolarni hal qilish va oqibatlarini yumshatish uchun birlashish majburiyatini yuklaydi. MDH Nizomida ekologik sohadagi hamkorlikni mustahkamlashning huquqiy fundamenti sifatida quyidagi omillar xizmat qiladi:

birinchidan, Orol dengizi, Orolbo‘yi mintaqasi geografik joylashuvi bo‘yicha eski ittifoq hududiga kiradi, MDH esa eski ittifoq davlatlari rahbarlari o‘rtasidagi bitim va o‘zaro kelishuvlar asosida tashkil etilgan; ikkinchidan, Orolbo‘yi aholisi, asosan, O‘zbekiston va Qozog‘iston fuqarolari bo‘lib, ular MDHga a‘zo-davlatlar hisoblanadi; uchinchidan, MDH Orol dengizining qurish tarixi va uning keyingi taqdiri bevosita bog‘liq bo‘lgan mintaqaviy xalqaro tashkilotdir; to‘rtinchidan, Orol fojiasi nafaqat Markaziy Osiyo mintaqasi, balki butun dunyo uchun ekotizimning buzilishi; beshinchidan, o‘tmishda Orol dengizidan baliq ovlash ba‘zi sobiq ittifoq davlatlari aholisi uchun iqtisodiy va moliyaviy manba bo‘lib xizmat qilgan. MDHga a‘zo-davlatlarning 2013-yil 31-maydagi atrof-muhitni muhofaza qilish sohasida hamkorlik to‘g‘risidagi bitim kuchga kirishi bilan 1992-yil 8-fevraldagi ilgari mavjud bo‘lgan bitim, shuningdek, 2002-yil 7-oktabrdagi Bayonnoma o‘z kuchini yo‘qotgan[6]. Ushbu bitim doirasida MDHga a‘zodavlatlarning hukumat rahbarlari Bitimni amalga oshirish uchun MDHga a‘zodavlatlarning “Davlatlararo ekologik Kengashi” ni tuzishga kelishib oldilar. Bitimda Orol fojiasi uzoq vaqtdan beri butun jahonda tan olingan bo‘lsada, Orol fojiasining zararli oqibatlarini yumshatish bo‘yicha MDHga ishtirokchi-davlatlar o‘rtasidagi hamkorlik vazifalarida to‘liq e‘tiborga olmaganligi uni asosiy kamchiligi bo‘lsada shu bitimning mintaq uchun ahamiyati beqiyos.

- Suv resurslarini to‘g‘ri boshqaruvining yo‘lga qo‘yilishi transchegaraviy daryolar mavjud bo‘lgan MDH davlatlari uchun katta ahamiyatga ega. Mintaqaviy suv resurslarini boshqarish bo‘yicha MDH doirasida bir qator kelishuvlar imzolandi. O‘zbekiston Amudaryo va Sirdaryo daryolaridan oqilona foydalanish bo‘yicha hamkorlikni yo‘lga qo‘ydi.

2021-yil 13-dekabrda Sirdaryo havzasida atrof-muhitni muhofaza qilish va suv sifati masalalari bo‘yicha O‘zbekiston-Qozog‘iston qo‘shma ishchi guruhining navbatdagi yig‘ilishi bo‘lib o‘tdi.

Ushbu yig‘ilish MDH davlatlari mintaqaviy hamkorligining yorqin namunasi bo‘lib, unda transchegaraviy suv resurslaridan oqilona foydalanish, davlatlararo munosabatlarni mustahkamlash va suv resurslarini birgalikda boshqarishning samarali mexanizmlarini ishlab chiqish muhokama qilindi.

Yig‘ilishda alohida ta‘kidlanishicha, O‘zbekiston Respublikasi uchun transchegaraviy suv resurslarini muvofiqlashtirilgan boshqarish va ularni muhofaza qilish ustuvor ahamiyatga ega. Shuningdek, suv resurslarini ifloslanish va inson faoliyatining salbiy ta‘siridan himoya qilish, shu jumladan ekologik oqibatlarni minimallashtirishga qaratilgan yangi tashabbuslar qabul qilinishi kerakligi ta‘kidlandi.

Ishtirokchilar suv sifati va atrof-muhitni muhofaza qilish sohasidagi hamkorlikni yanada rivojlantirishga chaqirdilar[10].

- O‘zbekiston MDHning iqlim o‘zgarishiga qarshi kurashish bo‘yicha dasturlarida faol ishtirok etadi. Bu sohada bir qator loyihalar amalga oshirildi, jumladan, qayta tiklanadigan energiya manbalarini rivojlantirish va bu orqali ekologik xavf darajasi yuqori bo‘lgan IES laridan foydalanishni qisqartirish maqsad qilib qo‘yilgan.

Davlat ekologiya qo‘mitasi vakillari iqlim o‘zgarishi va uning ta‘sirlari yumshatish bo‘yicha MDHning hos tashkilotlari bilan doimiy ravishda hamkorlik qilib o‘zaro qo‘shma bayonotlar berib borishadi. Ayniqsa so‘nggi yillardagi davomli hamkorlik davomida quyidagi masalalar muhokama qilinmoqda:

- Iqlim o‘zgarishining tabiatga ta‘siri – bioxilma-xillikning kamayishi va ekotizimlarning buzilishi;

- Havoning ifloslanish darajasini pasaytirish bo‘yicha rejalar;

- O‘zbekistonning 2019-2030 yillardagi "yashil iqtisodiyot"ga o‘tish strategiyasi;

- Mamlakatda xalqaro tashkilotlar bilan birgalikda olib borilayotgan iqlim o‘zgarishiga qarshi loyihalar.

Xususan, "yashil iqtisodiyot" strategiyasi doirasida qayta tiklanadigan energiya manbalarini joriy etish, ekologik texnologiyalarni rivojlantirish va atrof-muhitni muhofaza qilish choralari ko‘rilayotgani o‘tgan uchrashuvlar bayonotlarda ta‘kidlab boriladi. Xalqaro hamkorlikdagi loyihalar esa iqlim o‘zgarishining salbiy oqibatlarini kamaytirishga qaratilgan[11].

Makaziy Osiyodagi muhim geosiyosiy nuqtada joylashgan va mintaqaga tasir o'tqaza oladigan davlat sifatida O'zbekiston Mustaqil Davlatlar Hamdo'stligi doirasida qator istiqbolli loihalarni amalga oshirishni o'z tashqi siyosatining muhim aspekti sifatida qaramoqda va bu yo'nalishda qator loihalarga amalga oshirishni reja qilgan.

- Iqlim o'zgarishiga qarshi kurashish. O'zbekiston MDH doirasida iqlim o'zgarishiga qarshi kurashish bo'yicha yangi loyihalarni amalga oshirishni rejalashtirmoqda. Bu borada 2024 yilning 21 oktyabrda Oliy Majlis Senatining Orolbo'yi mintaqasini rivojlantirish va ekologiya qo'mitasi raisi B. Alixanov boshchiligidagi O'zbekiston delegatsiyasi Rossiya Federatsiyasining Sankt-Peterburg shahrida bo'lib o'tgan MDH PA iqlim o'zgarishiga moslashish masalalari bo'yicha seminarida ishtirok etdi.

Tadbir MDH Parlamentlararo Assambleyasi huzuridagi Ekologiya va tabiatdan foydalanish bo'yicha ekspert kengashining majlisi doirasida bo'lib o'tgan bo'lib, seminarining "Iqlim o'zgarishining ekotizimlarga ta'siri" va "Xalqaro hamkorlik va iqlim o'zgarishiga moslashishni huquqiy tartibga solish muammolari" mavzulariga bag'ishlangan seksiya majlislarida ekotizimlarning moslashuvining muhim masalalari va xalqaro hamkorlikni faollashtirish zaruriyati kabilar shuningdek, MDH davlatlarining bu boradagi qonunchiligini takomillashtirish masalalari muhokama qilindi.

Muhokama yakunlari bo'yicha parlamentlar, hukumatlar, xalqaro va milliy tashkilotlarga yo'llangantaklif va tavsiyalar qabul qilindi[12].

- Yashil texnologiyalarni joriy etish sohasidagi hamkorlik. Mamlakatimiz MDH a'zo davlatlari bilan birgalikda yashil texnologiyalarni joriy etish va qayta tiklanadigan energiya manbalarini rivojlantirish bo'yicha hamkorlikni kuchaytirmoqda. Ayniqsa O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2023 yil 12 may sanasidagi "Yashil energiya" sertifikatlari tizimini joriy etish chora-tadbirlari to'g'risida PQ-156-sonli qaror[7]i bu boradagi islohotlarning mantiqiy davomi bo'ldi.

- Ekologik ta'limni rivojlantirish sohasidagi hamkorlik to'g'risida gap ketganda O'zbekiston MDH doirasida ekologik ta'limni yoyish va xalqaro hamkorlikni rivojlantirish bo'yicha yangi dasturlarni ishlab chiqilayotganini alohida takidlab o'tish lozim. Jumladan 2024-yilning 22 – noyabr sanasidagi Rossiya Federatsiyasining Sankt-Peterburg shahrida bo'lib o'tgan Mustaqil Davlatlar Hamdo'stligiga a'zo davlatlar parlamentlararo assambleyasida qabul qilingan MDHga a'zo davlatlar uchun ekologik ta'limning namunaviy konsepsiyasi to'g'risidagi qarorda shunday deyilgan "MDHga a'zo davlatlar uchun ekologik ta'limning namunaviy konsepsiyasi (keyingi o'rinlarda Konsepsiya deb yuritiladi) Mustaqil Davlatlar Hamdo'stligiga a'zo davlatlarga ekologik ta'lim sohasida strategik rejalashtirish sohasida yo'l-yo'riq ko'rsatishga mo'ljallangan va Mustaqil Davlatlar Hamdo'stligi hududida yashovchi fuqarolarning ekologik ta'lim olish huquqini amalga oshirish uchun shart-sharoitlar yaratishga qaratilgan.

Ekologik ta'lim strategik yo'nalishga ega bo'lishi va barqaror rivojlanish uchun ekologik ta'lim bo'lishi kerak. Uning strategik yo'nalishi MDHga a'zo davlatlarning ekologik barqaror ijtimoiy-iqtisodiy rivojlanishga o'tishlari sharoitida inson kapitalini rivojlantirishning ustuvor milliy vazifalari bilan belgilanadi va 2030 yilgacha bo'lgan davrda Barqaror rivojlanish maqsadlaridan kelib chiqqan holda xalqaro hamjamiyatning tavsiyalariga mos keladi[8]."

#### **Xulosa:**

Mustaqil Davlatlar Hamdo'stligining (MDH) vujudga kelishi ham tabiiy, ham tarixiy ahamiyatga ega bo'lgan hodisadir. U yangi mustaqil davlatlarning suverenitetini saqlab, bir vaqtning o'zida yagona iqtisodiy makonni shakllantirishga qaratilgan. Sobiq Ittifoq davrida o'zaro bog'langan va o'rgimchak to'riga o'xshab chuvalashgan ishlab chiqarish tizimini saqlab qolgan holda, MDH a'zolari teng huquqli hamkor sifatida jahon bozori me'yorlari va qonun-qoidalariga muvofiq munosabatda bo'lishi zarur. Bu dunyo tomonidan tan olingan haqiqatga asoslangan tamoyil bo'lib, uning ahamiyati barqarorligini saqlab qolishi lozim[2:533].

Xalqaro tashkilotlarning mavjudligi, yangilarining tashkil etilishi keng imkoniyatlar eshigini ochadi, butun insoniyatni yaqinlashtiradi va sivilizatsiyaning bundan-da tez suratlarda rivojlanishiga imkon yaratadi.

Hukumatlararo tashkilotlar hamkorligi turli davlatlar o'rtasidagi o'zaro munosabatlarni qaror topdirish va vujudga kelayotgan muammolarni samarali hal etish mexanizmlarining ahamiyatini yanada teranroq tushunishga yordam beradi. Bu o'z navbatida, davlatlarning ichki va tashqi siyosati yaqinlashuviga sabab bo'ladi[4:9].

O'zbekistonning MDH bilan atrof-muhit himoyasi sohasidagi hamkorligi uzoq tarixga ega. Bu hamkorlik mintaqaviy ekologik muammolarni hal qilish, tabiiy resurslardan oqilona foydalanish va ekologik xavfsizlikni ta'minlashga qaratilgan. Kelajakda O'zbekiston MDH doirasida atrof-muhitni muhofaza qilish sohasidagi hamkorlikni yanada kuchaytirish niyatida. Bu esa nafaqat mintaq, balki butun dunyo uchun muhim ahamiyatga ega.

### Iqtiboslar/Сноски/References:

1. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2017-yil 21-aprelda imzolangan "Ekologiya va atrof-muhitni muhofaza qilish sohasida davlat boshqaruvi tizimini takomillashtirish to'g'risida"gi PF-5024-sonli Farmoniga Sharh; O'zbekiston Respublikasi qonun hujjatlari to'plami, 2017-y., 17-son, 287-modda
  2. Ўзбекистоннинг янги тарихи //Тузувчилар: Н.Жўраев, Т.Файзуллаев; Тахрир хайъати: А.Азизхўжаев (Раис), Б.Аҳмедов, С.Камолов ва бошқ./ - Т: «Шарқ», 2000.
  3. Совет глав государств Содружества Независимых Государств от 08.12.1991, Минск.
  4. O'zbekiston va xalqaro tashkilotlar. Akademiya nashriyoti. – Toshkent: 2005.
  5. Erkinova Sh.D.(2022, Mart). TABIATNI MUHOFAZA QILISHDA XALQARO HAMKORLIKNI AHAMIYAT. Central Asian Research Journal For Interdisciplinary Studies (CARJIS) jurnali. (160.)
  6. Batafsil: Статья 12. Соглашение о сотрудничестве в области охраны окружающей среды государств – участников СНГ // cis.minsk.by/reestr2/doc/3874#text (Murojaat sanasi – 10.12.2023 y.).
  7. Qonunchilik ma'lumotlari milliy bazasi, 15.05.2023-y., 07/23/156/0277-son; 09.08.2023-y., 07/23/271/0574-son
  8. MDHga a'zo davlatlar uchun ekologik ta'limning namunaviy konsepsiyasi to'g'risidagi qaror  
Mustaqil Davlatlar Hamdo'stligiga a'zo davlatlar parlamentlararo assambleyasi 22.11.2024 yil, Sankt-Peterburg
- Internet manbalar:**
9. Устав ООН // [www.un.org/ru/about-us/un-charter/full-text](http://www.un.org/ru/about-us/un-charter/full-text) (Murojaat sanasi – 12.12.2023 y.).
  10. <https://www.uznature.uz/uz/site/news?id=2186>
  11. <https://www.uznature.uz/uz/activity/international?numer=11&page=14&per-page=4>
  12. <https://senat.uz/post/post-2890>
  13. <https://cyberleninka.ru/article/n/mustaqillik-davrida-o-zbekistonning-janubiy-hududlarida-ekologik-holatni-barqarorlashtirish-masalalari/viewer>

# ЎТМИШГА НАЗАР

8 ЖИЛД, 6 СОН

ВЗГЛЯД В ПРОШЛОЕ

ТОМ 8, НОМЕР 6

LOOK TO THE PAST

VOLUME 8, ISSUE 6

**Editorial staff of the journals of [www.tadqiqot.uz](http://www.tadqiqot.uz)**

Tadqiqot LLC the city of Tashkent,  
Amir Temur Street pr.1, House 2.

Web: <http://www.tadqiqot.uz/>; Email: [info@tadqiqot.uz](mailto:info@tadqiqot.uz)

Phone: (+998-94) 404-0000

**Контакт редакций журналов. [www.tadqiqot.uz](http://www.tadqiqot.uz)**

ООО Тадқиқот город Ташкент,  
улица Амира Темура пр.1, дом-2.

Web: <http://www.tadqiqot.uz/>; Email: [info@tadqiqot.uz](mailto:info@tadqiqot.uz)

Тел: (+998-94) 404-0000